



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 14 - avgust

VI-64-157-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**Tuman mahalliy budgetining 2023-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budgetining 2023-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budgetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budgetining 2023-yil II-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 4 148,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida Xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budgetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirdorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining  
2023-yil 14-avgustdagি  
VI-64-157-8-109-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**Angor tuman mahalliy budgetining joriy yil davomiga ko‘ra qo‘shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag‘lar**

T/r	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo‘yicha ajratilgan mablag‘ maqsadi	Miqdori (ming.so‘mda)	Foiz hisobida
	1	2	3	4
		<b>Jami tuman budgetining 2023-yil 2-chorak yakuni bo‘yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘lar</b>	<b>4 148 000,0</b>	<b>100%</b>
I.		<b>Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari</b>	<b>138 800,0</b>	<b>3,3%</b>
1,1	Tuman hokimligi	O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari-Investitsiyalar va tashqi savdo vazirining 2022-yil mart oyidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatosh tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirish bo‘yicha yo‘l xaritasini ijrosi yuzasidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Taxiatosh tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish xarajatlari uchun	78 800,0	1,9%

1,2	Tuman hokimligi	Tumandagi Sharq Guli maxallasi markaziy istiroxat bog‘i xududidagi motamsaro ona xaykali monumentini rekonstruksiya qilish xarajatlari uchun	250 000,0	6,0%
-----	-----------------	--	-----------	------